

YANGI O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO, BMT, TDT, SHHT VA
AFG'ONISTON BO'YICHA TASHQI SIYOSATI

Yusupboyev Elbek San'atovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, xalqaro munosabatlar fakulteti 1-kurs talabasi Email:
yusupboyev.elbek@gmail.com

Nasimov Sunnatillo Valijonovich

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, uning dunyo arenasida egallaydigan pozitsiyasi, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatda qaysi davlatlar va qaysi mintaqalar bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor ekanligi, jahon siyosiy maydonida O'zbekiston Respublikasi o'rnining qanchalik muhim ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, tashqi siyosat, xalqaro maydon, manfaatdorlik, xalqaro munosabatlar, hamkorlik, ko'p tomonlama diplomatiya, mintaqaviylik, integratsiya, strategik, mexanizmlar, BMT, TDT, MDH, Markaziy Osiyo, davlat, tashkilot, konstruktiv.

Annotation: This article discusses the foreign policy of the Republic of Uzbekistan, its position on the global stage, the countries and regions with which the Republic of Uzbekistan is interested in cooperating in foreign policy, and the importance of the Republic of Uzbekistan's role in the world political arena.

Keywords: Republic of Uzbekistan, foreign policy, international arena, interest, international relations, cooperation, multilateral diplomacy, regionalism, integration, strategic, mechanisms, UN (United Nations), OTS (Organization of Turkic States), CIS (Commonwealth of Independent States), Central Asia, state, organization, constructive.

Özet: Bu makalede Özbekistan Cumhuriyeti'nin dış politikası, dünya sahnesinde işgal ettiği pozisyon, Özbekistan Cumhuriyeti'nin dış politikada hangi devletler ve bölgelerle işbirliği yapmaktan çıkarılı olduğu, dünya siyasi arenasında Özbekistan Cumhuriyeti'nin yerinin ne kadar önemli olduğu hakkında söz edilmektedir.

Anahtar kelimeler: Özbekistan Cumhuriyeti, dış politika, uluslararası arena, çıkarlılık, uluslararası ilişkiler, işbirliği, çok taraflı diplomasi, bölgesellik, entegrasyon, stratejik, mekanizmalar, BM (Birleşmiş Milletler Teşkilatı), TDT (Türk Devletleri Teşkilatı), BDT (Bağımsız Devletler Topluluğu), Orta Asya, devlet, teşkilat, yapıcı.

Аннотация: В данной статье говорится о внешней политике Республики Узбекистан, позиции, которую она занимает на мировой арене, о том, с какими государствами и регионами Республика Узбекистан заинтересована в сотрудничестве во внешней политике, а также о том, насколько важно место Республики Узбекистан на мировой политической арене.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, внешняя политика, международная арена, заинтересованность, международные отношения, сотрудничество, многосторонняя дипломатия, регионализм, интеграция, стратегический, механизмы, ООН (Организация Объединённых Наций), ОТГ

*(Организация тюркских государств), СНГ (Содружество Независимых Государств),
Центральная Азия, государство, организация, конструктивный.*

KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda har bir davlat o'z suverenitetiga ega va ichki hamda tashqi siyosatda mustaqil hisoblanadi. Tashqi siyosat – davlatning tashqi maydonda, o'z chegaralaridan tashqarida joylashgan davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan olib boradigan siyosatidir.

Tashqi siyosat har bir davlatning xalqaro maydondagi o'rni, manfaatlari va strategik maqsadlarni belgilovchi muhim siyosiy vosita hisoblanadi. Tashqi siyosiy maqsadlar milliy manfaatlarni aks ettiradi. Ularni amalga oshirish orqali davlat o'z tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshiradi. Davlatning tashqi siyosati va ichki siyosati hamohang bo'lib, mexanizmlar nuqsonsiz ishlashi uchun ikkisi ham birdek va samarali ishlamog'i lozim. Tashqi siyosiy maqsadlarga erishishda turli tamoyillar, uslub va mexanizmlarga tayaniladi. Diplomatiya sohasi tashqi siyosatni davlatlar o'rtasida amalga oshiruvchi asosiy vosita sanaladi. XIX asrda Buyuk Britaniyaning eng ko'zga ko'ringan siyosatchilaridan bo'lmish Lord Palmerston tashqi siyosatni quyidagicha ta'riflagan edi:

“Davlatlarning doimiy do'stlari yoki dushmanlari emas, balki doimiy manfaatlari mavjud”. Ushbu fikr tashqi siyosatning asosida milliy manfaatlar turishiga yaqqol misoldir. AQSh sobiq Davlat kotibi, realistik maktab vakili Henri Kissinjer o'z fikrini quyidagicha ta'riflagan: “Tashqi siyosat – bu davlat manfaatlarini xalqaro tizimda kuch va muvozanat orqali himoya qilish san'atidir”.¹

Taniqli ayol siyosatchi, Germaniyaning sobiq kansleri Angela Merkelning fikri: “Tashqi siyosat – ma'suliyat, muloqot va xalqaro qoidalarga hurmat asosida olib borilishi kerak”. Bu ta'riflardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tashqi siyosatning asosiy vazifasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, xavfsizligi, davlat va uning fuqarolari huquqi hamda manfaatlarini chet elda himoya qilishini ta'minovchi muhitni yaratishdir.

Bunday muhitni yaratish uchun har bir davlat qo'shni va o'ziga hududiy jihatdan uzoq davlatlar bilan ham aloqalar o'rnatadi. Xalqaro munosabatlardagi aktorlar o'zlikdan kelib chiqadigan milliy manfaatlar asosida harakat qiladilar.² O'zliklar o'zgarmas bo'lmaydi, ular vaqtga, vaziyatga va manfaatga qarab o'zgarib turadi. O'zlik va manfaatlar xalqaro munosabatlar tizimini shakllantiradi.³

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati. O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Davlatning tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqadagi vaziyat va ichki siyosatga hamohang holatda shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy kursining asosiy maqsadi – davlat mustaqilligi, suvereniteti, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofda xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, davlatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surishdir. O'zbekiston Respublikasi o'zining neytral davlat maqomini munosib tarzda dunyo

¹ Henry Kissinger – “Diplomacy”

² Wendt, Alexander. Anarchy is What States Make of it: The Social Construction of Power Politics. MIT: International Organization, Vol. 46,

³ Schoorl L. An analysis of Alexander Wendt's constructivist approach to anarchy. The Hague University of Applied Sciences. March 2022. – 4p.

hamjamiyatiga ko'rsatib kelmoqda, harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik, o'z hududida xorijiy davlatlar harbiy bazalari va ob'ektlarini joylashtirmaslik, shuningdek, mamlakat harbiylarining chet davlatlardagi tinchlikparvar harakatlar va urushlarda qatnashishiga yo'l qo'ymaslik harakatlari ushbu pozitsiyani tasdiqlaydi. O'zbekiston har qanday nizolar va qarama-qarshiliklarni diplomatik hamda tinch yo'l bilan hal qilish tarafdoridir. O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holatda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan chiqishi mumkin. O'zbekiston xalqaro hamjamiyatda davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralar daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish hamda himoya qilish, ochiqlik va pragmatizm, qo'shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining yubiley saksoninchi Bosh Assambleyasidagi nutqida O'zbekiston tashqi siyosatini quyidagicha ta'kidladi: "Bundan sakkiz yil muqaddam biz ushbu yuksak minbardan turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo'shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat'iy qaror qilganimizni e'lon qilgan edik. Biz bu strategik maqsadga erishdik.

Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi". O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri – Markaziy Osiyo integratsiyasi bo'lib, bu yo'lida Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvlari samarali mexanizmga aylangani O'zbekistonning tashqi siyosatidagi yutuqlaridan biridir. Shuningdek, O'zbekistonda qo'shma investitsiya jamg'armalari, chegara hududlarida savdo hamda sanoat zonalari, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali so'nggi yillarda mintaqada o'zaro savdo, investitsiyalar va transport tashuvlari hajmi besh barobargacha ko'paygan. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Asambleyada bildirgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy sheriklik va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan harakatlarini qo'llab-quvvatlashga doir rezolyutsiyani qabul qilish taklifi mintaqadagi davlatlar birdam harakat qilayotganining yaqqol namunasidir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy kursidagi muhim hamkorlardan biri – Afg'oniston bo'lib, bir qancha yo'nalishlarda, xususan, transport va logistika sohasida Termiz-Mozori Sharif temiryo'li eng muhim loyihalaridan biridir. Bu rejalashtirgan temiryo'l loyihasi Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Afg'onistonga elektr energiyasini eksport qiladi. Energiya yetkazib berish Afg'onistonda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy tiklanishga yordam beradi. BMT va SHHT kabi xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Afg'onistonga nisbatan tinchlikparvar va konstruktiv yondashuvni ilgari suradi, hamda Afg'onistonni mintaqaviy loyihalarga jalb qilishda qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev afg'on xalqining tinch va osuda hayotga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlagan holda, bu davlatning yolg'izlanib qolishiga yo'l qo'ymaslik zarurligini Bosh Assambleyadagi nutqida

ta'kidlab o'tdi: "Biz Afg'onitsonda katta iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqchimiz. Ushbu mamlakat bilan xalqaro transport va energetika sohalarini rivojlantirish bo'yicha tashkilotimizning alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz". O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan pozitsiyasidan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston tashqi siyosati tinchlikparvar va teng huquqlilik kabi ustuvor tamoyillarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hozirgi kunda mintaqaviy sheriklikka ham katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston o'tmishda SSSR tarkibida bo'lgani tufayli boshqa sovet davlatlariga bog'liqlik kuchli edi. Mustaqillikdan so'ng SSSR davlatlari o'rtasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi(MDH) tashkiloti tuzildi. Ushbu tashkilotning tuzilishidan maqsad – ko'p taraflama bir-biriga bog'langan postsovet davlatlari o'rtasidagi aloqalarni balansda tutish edi. O'zbekiston MDH doirasida faol aloqalar olib boradi. Ta'kidlash joizki, MDH tashkilotidagi davlatlar O'zbekistonning asosiy hamkorlari ham hisoblanadi. MDH O'zbekistonga o'z mintaqaviy rejalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. MDH davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bugungi kunda MDH Ichki ishlar vazirlari kengashi samarali hamkorlik, bilim almashish, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik va odam savdosiga qarshi kurashishdagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish muhim mexanizm ekanini ta'kidlagani O'zbekiston MDH davlatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlikda ishlashdan manfaatdor ekanidan dalolat beradi. MDH tashkiloti postsovet mamlakatlari o'rtasida o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning eng muhim maydonlaridan biri bo'lib qolmoqda. MDH a'zolari bilan O'zbekiston tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa turdagi aloqalarga ega. O'zbekiston MDH davlatlari bilan tenglik, o'zaro foydalilik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olish tamoyillari asosida hamkorlik munosabatlarini olib bormoqda va aloqalarni yanada chuqurlashtirish uchun qizg'in faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatda hozirgi kun tartibida turk xalqlari bilan integratsiyalashuv masalasini ham ilgari surgan. Tili, dini bir va qondosh bo'lgan qardoshlarning madaniy va g'oyaviy jihatdan yaqinligi, umumiy manfaatlar yo'lida birlashish va xalqaro maydonda turk xalqlarining strategiyalarini birgalikda ilgari surishi O'zbekiston uchun maqsadga muvofiqdir. Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida davlatlar o'z qardoshlari bilan yuqori darajada hurmat bilan aloqalar olib bormoqda, madaniy, gumanitar, iqtisod, logistika, ta'lim, xavfsizlik, meditsina, turizm va yana ko'plab sohalarda o'zaro hamkorlikni kengaytirish masalalari kun tartibiga olib chiqilmoqda, har bir yig'ilishda muhim qonunchilik hujjatlari va deklaratsiyalar qabul qilinmoqda. TDTga O'zbekiston 2019-yil a'zo bo'lib kirgan va aynan O'zbekistonning tashkilotga qo'shilishi tufayli uning nufuzi ancha yuqoriladi, hamda oltmishdan ortiq tashabbuslarni ilgari surib, tashkilotning eng faol a'zolaridan biriga ham aylanib oldi. Hozirgi globallashuv davrida davlatlar mintaqaviy hamkorlik va o'zlariga til, din va qon jihatdan yaqin davlatlar bilan yuksak hamkorlik qilishga urinishyapti va shunday holat uchun O'zbekiston Respublikasining TDTda olib borayotgan pragmatik siyosati O'zbekiston tashqi siyosati davr talablariga moslasha olishining isboti hisoblanadi. O'zbekiston turk davlatlari bilan

integratsiyani yanada chuqurlashtirishni maqsad qilgan bo'lib, umumiy alifbo rezolyutsiyasida ham asosiy tashabbuskorlardan bo'ldi. Turkiy Davlatlar Tashkiloti universitetining aynan Toshkentda ochilishi tashabbusini ilgari surish orqali qardosh xalqlar bilan ta'lim yo'nalishida ham markaz bo'la olishini ko'rsatdi. TDTning asosiy maqsadi – qardosh davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va ko'p qirrali aloqalarni mustahkamlash, savdo, iqtisod, energetika, turizm, transport, madaniy-gumanitar sohalarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat. O'zbekiston TDT asosiy maqsadida ko'zda tutilgan har bir sohada keng aloqalar yuritishdan manfaatdor va doimo o'z tashabbuslarini ilgari surib keladi. O'zbekistonning hozirgi kundagi ko'p vektorli tashqi siyosatida davlat a'zo bo'lgan har bir tashkilot muhim sanaladi, ammo O'zbekiston qardosh xalqlar bilan ham bir platformada tashabbuslarni ilgari surayapti, har bir sohada ular bilan keng hamkorlik qilayapti va bular O'zbekiston tashqi siyosatida TDT o'rnining qanchalik muhim ekanini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston yangi suveren, mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) 1992-yil 2-martda a'zo bo'ldi. Davlat ushbu tarixiy voqeadan keyin o'tgan vaqt mobaynida BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan turli sohalarida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xavfsizlikka zamonaviy tahdid va tahlikalarga qarshi kurashish, Afg'onistonda barqarorlikka erishish va mamlakat iqtisodiyotini qayta tiklash, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, ekologik muammolarni hal qilish, xususan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va ilgari surish, turizmni rivojlantirish kabilar ko'p qirrali hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. 1993-yildan buyon Toshkentda BMT vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD), Aholishunoslik jamg'armasi (BMTAJ), Bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO), Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMTGMJB), Gender tengligi, ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tuzilma (BMT-Ayollar), Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi (BMT MOPDMM), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (MXT), shuningdek, BMT Taraqqiyot dasturi shafeligidagi Ko'ngillilar dasturi O'zbekistonda "BMT oilasi"ni tashkil qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (YUNIDO), Atrof-muhit bo'yicha dasturi (YUNEP) va Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) ham BMT tizimi faoliyatiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Shuningdek, Jahon banki BMTning mustaqil ixtisoslashgan organi sifatida tuzilmaning mamlakatimizdagi faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida tashkilot bilan samarali va o'zaro manfaatli muloqotda yangi davrni boshlab berdi. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh assambleyasi doirasida oltita rezolyutsiya ishlab chiqilgan hamda qabul qilingan. O'zbekiston xalqaro majburiyatlarga sodiqligi va BMT doirasida ilgari surgan tashabbuslari nafaqat biron bir mintaq, balki butun dunyo uchun dolzarb masalalardir.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston bugungi kunda ko'p vektorli, tinchlikparvar, mintaqaviy hamkorlikka asoslangan va o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib boradi. O'zbekiston har bir vaziyat yuzasidan doimo o'z pozitsiyasini bildiradi, konfliktlar va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlaydi. Tashqi siyosat O'zbekistonning xalqaro arenadagi manfaatlarini himoya qilgan holda, mintaqaviy va xalqaro doirada hamkorlik olib borish uchun kalit vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatida ishonchli sherik sifatida ko'plab davlatlarning tashqi siyosatida muhim o'rin egallaydi. Umuman olganda, O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasi dinamik ravishda rivojlanib borayotgan global dunyo talablariga to'laqonli javob beradi. Ko'p tomonlama diplomatiya va muvozanatlashgan aloqalar mamlakatning turli geosiyosiy markazlar bilan samarali hamkorlik qilish imkonini bermoqda. O'zbekistonning olib borayotgan konstruktiv tashqi siyosati jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://gov.uz/en/mfa>
2. <https://president.uz>
3. <https://parliament.gov.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT 80-Bosh Assambleyadagi nutqi
5. <https://uzbekistan.un.org/uz>
6. <https://www.turkicstates.org/uz>
7. <https://uza.uz/>